



LEKSIKOGRAFIYA TARIXIGA BIR NAZAR...

O'ralova Fazilat Olimjon qizi

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida 2-bosqich magistranti

Ashirboyev Samixon

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tili leksikografiyasi haqida, uning hozirgi holatga kelgunicha bo'lgan tarixi haqida, o'zbek tili lug'atshunosligi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining tarixiga oid ma'lumotlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar : *"leksikografiya " atamasi, " Devonu lug'atit turk ", " Asos ul-balog'a ", ijtimoiy hodisa, Qavzin shahri, Majusiy- otashparastlar, " Muqaddimat ul-adab", " Abushqa", " Sangloh ", "Navoiy asarlari lug'ati ", "O'zbek klassik adabiyoti asarlarini o'qish uchun qisqacha lug'at", "O'zbek tilining izohli lug'ati"*

Leksikografiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, avvalo, " leksikografiya " atamasi aynan qanday ma'no ifoda etishini bilib olamiz. " Leksikografiya " qadimgi yunonchadan olingan so'z bo'lib, " leksika" va " grafiya " , " so'z " va " yozuv " so'zlaridan tashkil topgan va u lug'at tuzish, lug'atshunoslik haqidagi fan ma'nosini ifodalaydi.

Bizga ma'lumki, har qanday til o'zining betakror boyligi, ya'ni so'z va lug'at boyligiga egadir. Ushbu so'zlar esa doim harakatda. Ya'ni bizga ma'lumki, til ijtimoiy hodisa hisoblanib, u xalqning ijtimoiy hayoti bilan birgalikda harakatlanadi. Xalqning turmush tarzi o'zgaradi, ma'lum bir so'zlar eskirib o'rniga boshqasi keladi. Shuningdek turli kashfiyot va ixtirolarning paydo bo'lishi ham o'z navbatida tilga o'zining ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Yana davlatlarning o'zaro iqtisodiy, siyosiy aloqalari ham tilga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ushbu dinamik taraqqiyotning milliy boyligimiz bo'lgan tilimiz uchun muhim ahamiyatli tomoni shundan iboratki, bu kabi omillar tilning iste'molga yaroqsiz holga kelib qolishiga olib kelishi mumkin.

Ana shunday omillarning muhim jihatlarini hisobga olgan bir qator tilshunoslar leksikografiyaga muhim muammo deb qarashgan. Buni esa leksikografiyaga o'z hissasini qo'shgan olimlarning ishlarida, olib borgan tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin.

O'zbek leksikografiyasining tarixi bugungi kundan bir necha asrlar oldinga borib taqaladi. Xususan, bu tarixda buyuk bobokalonimiz Mahmud Koshg'ariyning " Devonu lug'atit turk " asari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu lug'atning ahamiyatli tomoni shundan iboratki, unda faqat so'zlar va ularning ma'nolarigina emas, balki, turkiy xalqlar tarixi, urf- odatlari, an'analari, geografik jihatdan





joylashuvi, mashg'ulotlari kabilar haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. So'z isboti bilan deganlaridek, asarda keltirilgan parchada, jang manzaralari, xalqning mashg'uloti ov qilish ekanligi, turk shaharlaridan biri Qavzin shahri va uning tarixi, xalqda vafot etgan kishi ortidan Majusiy- otashparastlarning har yili bir kun qabriga kelib, mollar so'yib, qurbonlik qilib, so'yilgan mol qonini mozar tepasiga to'kish odatlari borligi haqidagi urflari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Shuningdek, o'zbek leksikografiyasi tarixiga yana bir yurtdoshimiz Mahmud Zamaxshariy o'zining "Asos ul-balog'a" asari va "Muqaddimat ul-adab" nomli lug'ati bilan o'z hissasini qo'shgan. Bu lug'atning ahamiyatli tomoni shundan iboratki, lug'at to'rt til: arab, fors, o'zbek, mo'g'ul tillarini tadqiq etganligidadir.

Keyingi davrlarda, ya'ni XIII asrda ham lug'atlar yaratilgan muallifi noma'lum bo'lgan "At-tuhfatuz-zakiyati fil-lug'atit-turkiya" deb nomlangan lug'at so'zimizning isbotidir.

XVI asrdan keyingi davrda leksikografiya yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan katta qiziqish shoir asarlari tili, umuman eski o'zbek tili bilan bog'liq ko'plab lug'atlarning yaratilishiga asos bo'ldi.

Ular quyidagilardir: To'le Imoni Hiraviyning "Badoe ul-lug'at" nomli chig'atoycha - forsha lug'ati, "Abushqa" nomli chig'atoycha- turkcha izohli lug'ati, Muhammad Yoqub Chingiyning "Kelurnoma", nomli o'zbekcha -forsha lug'ati, Muhammad Rizo Xoksoning "Muntaxab ul-lug'ot" nomli izohli lug'ati, Mirzo Mahdiyxonning "Sangloh" nomli chig'atoycha- forsha lug'ati, Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoy va turki usmoniy" kabi va boshqa lug'atlar shular jumlasidandir.

Bu davrda yaratilgan lug'atlar haqida tilshunos H.Fattohov o'zlarining "O'zbek leksikografiyasi tarixiga bir nazar" nomli maqolasida fikr bildirar ekan: "XVIII asrning mashhur lug'atshunosi xorazmlik Muhammad Rizo Xoksoning "Muntaxabu-l-lug'ot" (Tanlangan so'zlar), "Zubdu-l-lug'ot" (Saralangan so'zlar) asarlarining ikkisida ham asarning hamma lug'at maqolalarida biror tarjima qilinayotgan so'zlarga izohdan so'ng ma'no tasdiqlovchi qism sifatida o'zbek, fors, tojik klassiklari asarlaridan misollar keltirilgan "- deya o'sha davr lug'atchilik tartibi haqida aytadi.

O'zbek lug'atchiligi tarixida XX asr alohida o'rin tutadi. Bu davrda endi lug'atlar ma'lum bir maqsadlarda tuzila boshlandi. Turli sohalarga oid terminologik lug'atlar, imlo lug'atlar, turli tillardan so'zlashgichlar yaratildi.

Shuningdek, leksikografiya tarixida yana ko'plab lug'atlar tuzilgan bo'lib, E.D. Polivanovning "Qisqacha ruscha - o'zbekcha lug'at", Ashurali Zohiriyning 2 jildli "Ruscha - o'zbekcha mukammal lug'at", Yudaxinning "Qisqacha o'zbekcha - ruscha lug'at" va boshqalar shular jumlasidandir.

Leksikografiya sohasi ancha rivoj topgan, taraqqiy etgan soha bo'lishiga qaramay, har to'kida bir ayb, deganlaridek, bu soha ham muammo va kamchiliklardan xoli emas. Xususan, tilimizning bitmas-tuganmas so'z boyligini





qamrab olish uchun ma'lum xronologik chegaralarga ega bo'lgan, aniq maqsadlarga mo'ljallangan lug'atlar tuzish taqozo etilgan edi. Xususan, Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoirlarning asarlarini o'qish uchun maxsus lug'at zarur edi. Chunki eski o'zbek tilining hozirgi o'zbek tilidan lug'at tarkibi tomondan ham, Grammatik qurilish jihatidan ham sezilarli darajada farq qiladi. Ana shu omillar natijasi o'laroq 1972- yilda P. Shamsiyev va S. Ibrohimovlar tomonidan " Navoiy asarlari lug'ati " yaratildi. Bu lug'at birinchi marta 1953-yilda " O'zbek klassik adabiyoti asarlarini o'qish uchun qisqacha lug'at " nomi bilan chop etilgan edi. 1983-1985- yillarda esa prof. E.I.Fozilov rahbarligida shoir asarlari tilining 4 jildli ancha mukammal lug'ati nashr etildi.

Leksikografiya sohasida muhim ahamiyat kasb etuvchi 2 tomli " O'zbek tilining izohli lug'ati bu sohada tub burilish yasadi. Bu lug'at 60ming so'z va so'z birikmalarini qamrab olgan. Ushbu lug'at 1981-yilda chop etilgan. Shu bilan birga 2 jildli " Ruscha - o'zbekcha lug'at " (1983-1984-yillar) hamda 1988- yilda nashr etilgan " O'zbekcha - ruscha lug'at " larning nashr etilishi leksikografiyada yangi bosqichni boshlab berdi.

Barchaga ma'lumki, leksikadagi taraqqiyot, o'zgarishlar yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi va ma'lum lug'aviy birliklarning yo'q bo'lishi (iste'moldan chiqishi), so'zlarning yangi ma'no kasb etishi va ayrim ma'nolarning yo'qolishi kabi hodisalardan iborat bo'ladi. Ana shunday o'zgarishlar va hodisalar ma'lum darajaga kelganida, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi tadqiqotlarga ehtiyojni paydo qiladi. Bizning leksikografiya tarixida ham ana shunday hodisa ro'y berdi. Ya'ni 1981- yilda chop etilgan " O'zbek tilining izohli lug'ati " ham barcha sohalarga oid bo'lgan birliklarni izohlashga yetarli bo'lmay qoldi.

Ana shunday omillar ta'sirida o'zbek tili lug'at tarkibida yuz bergan jiddiy o'zgarishlar munosabati bilan o'zbek tilining davr talabiga javob beradigan ko'p jildli izohli lug'atini tuzish va chop etish respublika hukumatining maxsus qarori bilan Davlat dasturiga kiritilib, uni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutiga yuklatildi. Bu vazifa Institutning bir guruh olimlari tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirildi va 2006-2008 yillarda " O'zbekiston milliy ensiklopediyasi " Davlat ilmiy nashriyotida 5 jildli " O'zbek tilining izohli lug'ati " nashr etildi.

Bu lug'atni tuzishda 1981-yilda chop etilgan ikki jildli izohli lug'at materiallaridan foydalanildi. Lekin u ikki jildli lug'atning to'ldirilgan yoki qandaydir o'zgarishlar bilan qayta ishlangan nashri emas, balki leksikografiyaning yangi yutuqlarini hisobga olgan holda yaratilgan mutlaqo yangi lug'atdir.

Xulosa o'nida shuni ta'kidlashimiz lozimki, o'zbek leksikografiyasi hozirgi ko'rinishiga kelgunga qadar asrlar silsilasidan o'tib, sayqallanib kelmoqda. Bu taraqqiyotning yuzaga chiqishida esa leksikograflarimiz va olimlarimizning hissasi





kattadir. Yaqin o'n yilliklarda o'zbek leksikografiyasi bundanda rivoj topib, bugungidanda mukammalroq qiyofa aks ettiradi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996- yil 10-sentyabrdagi 311-sonli qarori va unga ilova qilingan Davlat dasturi
2. " O'zbek tilining izohli lug'ati " 5 jildli. " O'zbekiston nashriyoti " 1-jild. Toshkent- 2020
3. S. Normamatov " Leksikografiya asoslari " "Nodirabegim " nashriyoti Toshkent- 2021
4. H.Fattohov " O'zbek leksikografiyasi tarixiga bir nazar " // O'zbek tili va adabiyoti . Toshkent. 1981. 3 -soni.
5. B. To'xliyev " Adabiyot " Akademik litsey va kasb -hunar kollejlari uchun. "O'qituvchi " Toshkent 2003.

